



“O‘zavtosanoat” AJning korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish bo‘yicha aloqa kanallarini tasdiqlash va mas‘ul xodim biriktirish haqida

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi siyosat va tartib-taomillari, ichki idoraviy normativ hujjatlarning buzilishi oldini olishi hamda nazorati ostidagi korxonalar yoki xodimlarga daxldor noo‘rin xatti-harakatlar xususida zudlik bilan xabar topish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1.“O‘zavtosanoat” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qoidabuzarliklar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish bo‘yicha quyidagi aloqa kanallari belgilansin:

Komplayens ishonch telefoni:	+99878 140 76 70
Elektron pochta:	compliance@uzavtosanoat.uz
Rasmiy veb-sayt:	https://uzavtosanoat.uz/page/contacts
Facebook:	https://www.facebook.com/compliance.uzauto/
Telegram:	uzautosanoat_compliance_bot

2.Axborot xavfsizligi va axborot texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (G‘.Xusainov) aloqa kanallarini uzluksiz ishlashini ta‘minlasin va texnik holatini nazorat qilib borsin.

3. Aloqa kanallari orqali tushayotgan murojaatlar dushanba kunidan juma kunigacha (bayram kunlaridan tashqari) soat 09:00 dan 13:00 gacha va 14:00 dan 18:00 gacha Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamentining mas'ul xodimlari tomonidan qabul qilinadi.

4. Jamoatchilik bilan aloqalar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik xizmati (J.Xodjaev) Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti (M.Xakimov) bilan birgalikda aloqa kanallarini tashkil etilganligi haqida aholi e'tiboriga etkazish maqsadida OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilinishini ta'minlasin.

5. Ushbu aloqa kanallari orqali kelib tushadigan murojaatlarni qabul qilish va uni ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash yuzasidan mas'ul etib, Komplayens xizmati bosh menejeri Inoyatullaev Sa'dullajon Xabibullayevich (xodim ish joyida bo'lmagan hollarda departament direktori tomonidan boshqa xodim mas'ul etib biriktiriladi) tayinlansin.

6. Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamentiga quyidagi vazifalar yuklansin:

- korrupsiyaga oid kelib tushgan har bir murojaatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash;

- har chorakda korrupsiyaviy harakatlar to'g'risidagi xabarlarga taalluqli bo'lgan hisobotni yuritish, ularni umumlashtirish, jamiyat rahbariga taqdim etish.

7. Xabarlarni ko'rib chiqishda mas'ul xodim tomonidan murojaatchining roziligisiz ma'lumotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. Xabarlarni ko'rib chiqishda Kuzatuv kengashining 18.10.2022-yildagi 16-2022-son bilan tasdiqlangan "Aloqa kanallari orqali qoidabuzarliklar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti"ga qat'iy amal qilinsin.

9. Mazkur buyruqning belgilangan tartibda tegishli tarkibiy bo'linmalarga yuborilishini ta'minlash Ma'muriyat va hujjatlar ijrosi nazorati boshqarmasi (Zohidov) zimmasiga yuklansin.

10.Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan nazorat Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti (M.Xakimov) zimmasiga yuklansin.

Tasdiq

Boshqaruv raisi



2025-07-28 18:39

U.U.Rozukulov

Rozilik

Boshqaruv raisi yordamchisi



2025-07-26 13:38

T.B.Mo'minov

Boshqaruv raisi o'rinbosari



2025-07-25 16:24

R.A. Bikkulov

Boshqarma boshlig'i



2025-07-25 16:32

X.R.Nuriddinova

Boshqarma boshlig'i



2025-07-25 18:07

M.A.Zohidov

Boshqarma boshlig'i



2025-07-25 15:20

S.I.Gafarov

Jamoatchilik bilan aloqalar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik xizmati rahbari - Boshqaruv raisining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi



2025-07-25 15:23

J.U.Xodjayev

Boshqarma boshlig'i



2025-07-25 18:01

G.R.Xusainov

Bosh mutaxassis



2025-07-25 15:13

V.O.Serikova

Boshqaruv raisining maslahatchisi



2025-07-25 15:07

R.A.Abdurahmanov

Bo'lim ichida rozilik

Komplayens xizmati rahbari



2025-07-25 14:57

A.A.Odilov

Departament direktori



2025-07-25 15:00

M.N.Xakimov

Mas'ul

Bosh menejer



2025-07-25 14:52

S.X.Inoyatullayev